

## YOSHLAR Sotsiolekti Lisoniy Hodisa Sifatida

**Sevara Mahmudova**

Dosent, f.f.n, O‘zDSMI

**Sarvara Irisalievna Tashaliyeva**

Katta o‘qituvchi, TDSHU

**Annotasiya:** Mazkur maqolada sotsiolekt termini, umumxalq tilining ijtimoiy-toifaviy lahjalari, yoshlar sotsiolektlariga mansub so‘z, ifodalar adabiy muloqot tarkibida turli vaziyatda, xilma-xil vazifalarda, badiiy adabiyotda, matbuotda, tele va radiomuloqotda ishlatilishi misollar yordamida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** sotsiolekt, ijtimoiy lahja, sleng, interjargon, argotizm, jargon.

**Kirish qismi:** Jamiyatning ijtimoiy turkumlanishi, tabaqalanishiga ko‘ra umumxalq tili qo‘llanishining ijtimoiy-toifaviy turlari farqlanadi. Ularning har biri o‘ziga xos muloqot vaziyati va lisoniy xususiyatlarga egaligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ular umumxalq tilining ijtimoiy-(toifaviy) lahjalari (sotsiolekt: qiyos: dialekt) hisoblanadi.[1,15-b]

Har bir ijtimoiy lahja (sheva) milliy tilning alohida ichki nutqiy tizimi sifatida o‘z lug‘atiga ega. Masalan, savdo, tijorat ahli muloqotida shapka, qalpoq, shlyapa, do‘ppi, yakan, saqqa, ko‘ki (qiyoslang: bizgayam do‘ppi kiydirib yuborishadi, shlyapasi bilan keladi - ustama narx ma‘nosida), otarchilar nutqida o‘dak (ketamiz), noye (bormaymiz, yo‘q), otarkas (to‘y egasi), kalampo (katta odam), mayob (ichimlik), danop (o‘yinchi) kabi g‘ayriodatiy ifodalar (qiyos: yakanni knopka qilish – pulni yashirish) o‘g‘rilar, kissavurlar, qimorbozlar tilida bedana, bitpildiq, o‘yinchoq (to‘pponcha), sirka, loy, buler (rubl‘), dori, jilg‘on, shana (nasha), kurort, sanatoriy, quda tomon (qamoqxona), kitob (karta), projektor, svetofor (begona ko‘z-guvoh) qabilidagi so‘z va ifodalar mavjud.[2, 18-b ]

Ijtimoiy lahjalar tarkibi uch asosiy qism: 1) lug‘aviy tarkibi, 2) kodi-g‘oyaviy-mazmuniy o‘ziga xosligi, 3) matniy-nutqiy qurilishi asosida tasniflanadi. Tilshunoslikka oid manbalarda ijtimoiy lahjalar lug‘at tarkibiga ko‘ra jargonlar, argolar, professionalizmlar yoki maxsus leksika sifatida izohlab kelinadi. Argotizm, jargonizmlar jamiyat uchun “begona” jinoiy guruh ahli uchun xos “buzuq” til, o‘z fikrini boshqalardan yashirish maqsadiga xizmat qiluvchi “sirli”, “pinhoni” til sifatida talqin etiladi hamda umumxalq tiliga leksik xususiyatlari jihatidagina qarshi qo‘yiladi. Argolarning sirli va shartli (sun‘iy) til sifatida maxfiy, g‘ayrirasmiy vazifa, jargonlarning ekspressiv vazifa bajarishi qayd etiladi.

**Asosiy qism:** Ijtimoiy lahjalarning ishlatilish doirasiga ko‘ra toifaviy jargonlar va kasbiy jargonlar farqlandi. Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan bular toifaviy lahjalar va kasbiy lahjalar maqomida izohlanadi. Toifaviy va kasbiy lahjalarning lug‘at tarkibi ham tarixiy-ijtimoiy jihatdan turli o‘zgarishlarga uchraydi hamda bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Qadimda bunday lahjalar abdol (qalandarlar) tili, zargari (sozanda va mashshoqlar) til, kiborlar tili, o‘g‘rilar tili, bolalar tili sifatida bir-biridan farqlangan.

Har bir toifaviy yoki kasbiy lahjaning lugʻaviy tarkibi boshqa shunday toifaviy va kasbiy lahjalarnikidan farqli boʻlib, oʻziga xos semantik ayirmalar, maʼnolar silsilasi, metaforik muqoyasalar muqobilligigiga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday lugʻat tarkibi va maʼnolar turkumini yaratishda umumxalq tilidagi, lahja va shevalardagi soʻz va ifodalar, boshqa tillardan olingan vositalardan foydalaniladi. Mavjud soʻz yoki iboraning odatdagi maʼnosi yoki shakli oʻzgartiriladi, analogiya usulida oʻzga narsa-hodisaga koʻchirib qoʻllanadi. Masalan, savdo sohasida tepivordim (sotib yubordim), goʻshangada turibdi (sotilmay peshtaxta tagida saqlanmoqda), hozircha tomorqa (oylik, maosh) kunimizga yarab turibdi; ellikta haykalga (suvratli pul) bermadim tarzidagi ifodalar odatdagi meʼyoriy qoʻllanishlardan chekinishlardir, umumiy lisoniy maromlarni “buzish”dir.

Ijtimoiy lahjalarning nutqiy, matniy tarkiblanishi, uning lugʻat tarkibiga xos maʼnolardagi ayirmalarga, majoziy muqoyasalarga bevosita bogʻliq. Ijtimoiy-toifaviy lahjalarning umumiy xususiyati (vazifasi) ularning muayyan bir ijtimoiy guruh aʼzolari uchun aloqa vositasi boʻlib xizmat qilishdan iborat. Ular bir-biridan vazifasiga koʻra farqlanadi.

Kasbiy lahjalarning asosiy vazifasi kasb-hunarga xos murakkab ish usullari va jarayonlari haqidagi axborot ifodalashdan iborat shunga koʻra, ularda kasb-korga, fan-texnikaga mansub maxsus atamalar, ifodalar, chet til unsurlari keng qoʻllanadi. Ularning koʻpchiligi xalq uchun maʼlum tushunarli; ularning maʼlum qismigina koʻpchilik uchun “yangi”, nomaʼlum ifoda tarzida idrok etilishi mumkin.

Muayyan ijtimoiy guruh nutqi alomatiga aylangan maxsus lugʻat: 1) ijtimoiy toifa his-tuygʻusi, didi va dunyo qarashlarini ifodalovchi metaforik, metonimik qoʻllanishlar, 2) jinoiy yoki maxfiy faoliyat ehtiyojiga koʻra mavjud analogiya modellari asosida gʻayriodatiy tarzida yaratilgan, shakli ham, maʼnosi ham “sirli”, “pinhoni” boʻlgan yangi yaratilqlar, 3) odatiy va noodatiy soʻz, iboralarning gʻayriodatiy qorishmasidan hosil boʻlgan ifodalardan tashkil topadi. [3, 45-b ]

Ijtimoiy-lahjaviy vositalarning bir biriga oʻtishi, aralashuvi oʻziga xos interjargon tasavvurini yaratadi va ular oʻrtasidagi yaqinlashuvning koʻrsatkichi sanaladi. Bu holni jargonlarning yozma muloqotga, adabiy tilga oʻtishi deb emas, balki turli ijtimoiy lahjalarning oʻzaro yaqinlashuvi natijasida soʻzlashuv uslubi ichki bir turining shakllanishi deb baholash ham mumkin. Sotsiolingvistikada “yoshlar slengi” tushunchasi mana shu xususiyatni oʻz ichiga oladi.

Jargonlar va kasb-hunar lugʻatining adabiy soʻzlashuvga tomon siljishi murakkab jarayon. Jargonlar odatda soʻzlashuvga oʻtishdan oldin umumjargon (interjargon)ni hosil qiladi va neytrallashadi, maʼlum umumiylik sifatini kasb etadi. Umumijtimoiy lahja-umumjargon birligining adabiy soʻzlashuvga (slengga) oʻtishi oson kechadi. Umumiy ijtimoiy-toifaviy xususiyat kasb etgan jargon usluban ham, vaziyatan ham betaraflashadi.

Soʻzlashuv nutqining toifaviy, kasbiy variantdorligi, asosan, taʼsirchanlik uchun ishlatiladi. Muloqotda nutqiy oʻziga xoslik, yangilik, gʻayriodatiylik taʼssurotini hosil qiladi (argodan maqsad axborot manfiyligini taʼminlashdir).

Ijtimoiy lahjaviy muloqotning adabiy soʻzlashuv variantida soʻz shaklini, uning maʼnosini oʻzgartirish-gʻayriodatiy sinonimiya yaratish lugʻaviy favhuloddalikkka erishish ongli ravishda amalga oshiriladi. Bu psixologik jihatdan ekpressivlikka intilish, noodatiy ifoda usulini yaratishni taʼminlaydi, nutq sohibining muayyan korporativ guruhga mansubligini taʼkidlash istagini yuzaga chiqaradi.

Yoshlar slengi uzoq vaqtdan beri mavjud boʻlib, talabalar va maktab oʻquvchilari bir-birlari bilan muloqot qilishda doimo "oʻz" soʻzlari va iboralarni ishlatishgan. Buni tilshunos olimlarning oʻtgan asrlardagi adabiy-leksikografik manbalarni oʻrganish natijalari ham tasdiqlaydi. Ular bir qator tillardagi yoshlar sotsialekti uzoq oʻtmishda ildiz otganligini koʻrsatadi. Aksariyat zamonaviy tadqiqotchilar yoshlar sotsiolekti zamonaviy milliy tillarning lingvistik faol shakllaridan biri deb bilishadi. Ular yosh avlodning lingvistik va ijodiy qobiliyatlari boshqa yosh (yoki ijtimoiy) guruhlarining tilni amalga oshirish bilan solishtirganda ham, mavjud til meʼyorlariga nisbatan ham farqlanishini tasdiqlaydilar.[4]

Hozirgi davr o'zbek yoshlari nutqida ham bir biriga zid ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi. Bular: yangilikka intilish va an'anaviylilikni saqlash; madaniylilik (ziyolilik) va oddiylik (jo'nlik) tamoyillari o'rtasida muqobilikka asoslangan muloqot variantdorligidir.

Yoshlarning jamoatchilik ichida, madaniy, ma'rifiy, rasmiy muloqot vaziyatlaridagi nutqida madaniylik, bilag'onlik tamoyili va alomati sifatida, avvalo, hozirgi davr fan-texnikasi, adabiyot va san'at, iqtisodiyot va siyosat, sport sohasiga oid atamalar, so'z va ifodalardan, ikkinchidan, mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq mustaqillik mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy va voqea-hodisalar tarixiy-ma'naviy qadriyatlarga, telemuloqot va matbuotdagi axborotlar olamiga daxldor tushunchalar, fikriy xulosalardan, uchinchidan, chet tilidan o'zlashtirilgan lug'at birliklaridan foydalanishga intilish ko'zga tashlanadi. Buni yoshlar nutqiy madaniyatining namunaviy ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Ularning ko'chadagi, tengqurlar davrasidagi nutqlarda esa oddiylik, jo'nlik (hatto bir oz to'porilik) tamoyili ustuvor xususiyat kasb etib, bu, birinchidan, narsa-hodisalarni baholashda, muloqotdoshlarga munosabatda nihoyatda erkinlik, betakalluflik, demak, biroz beparдоз, dag'alroq so'zlarni, qat'iy-keskin ifodalarni, ikkinchidan, tildan foydalanishda iqtisod qilish, qisqalik, lo'ndalik, mavjud maromlarni buzish, so'z va ifodalarni ham shaklan, ham ma'nan o'zgartirish, uchinchidan, o'zlarining ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligi yoki yaqinligini ta'kidlash maqsadida jargonlarga murojaat etish, to'rtinchidan o'ziga xos favqulodda g'ayrioddiy ifoda tarzini yaratish, fonetik, morfologik qoidalarini "buzish", yangilash, so'z o'yinidan, metaforalardan ijodiy foydalanish kabi xususiyatlarda aks etadi.

"Yoshlar slengi" (ijtimoiy so'zlashuv nutqi) tushunchasi muloqotning ayni mana shu turiga oid bo'lib, yoshlarning erkin, betakalluf muomala shaklidir. Shunday ekan, sleng tom ma'noda mustaqil qurilishga ega aloqa vositasi bo'la olmaydi, balki so'zlashuv nutqining alohida bir varianti sifatida namoyon bo'ladi. Sleng salbiy lisoniy hodisa ham, jargon ham emas, binobarin, adlohida ijtimoiy lahja ham bo'la olmaydi: yostiқ (qalin darslik), fasad (yuz qiyofa), kobra (jahldor shaxs), echki (sho'x qiz), kosmonavt (mashg'ulotdan qochib yuruvchi talaba) kabi so'zlar ma'nosini o'zgartirishni yoshlarga xos nutqiy ijodkorlik samarasi, deb baholash ham mumkin.

**Xullas**, bunday hollar o'zining o'zligini, yangicha fikrlash usullarini izlayotgan yoshlar nutqi uchun tabiiy holdir. Lekin u past toifadagi madaniy muloqot birligi ham sanaladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув кўлланма. – Тошкент, 2009. 15-б
2. Ўзбек тили лексикологияси.-Т.: "Фан", 1981, 18-б
3. Тошалиев.И. Ахборий мулоқот маданиятининг социолингвистик тавсифи.Ўқув кўлланма.-Т.: 2019, 45-б
4. Ерофеева Т.И.Понятие социолект в истории лингвистики XX века.(Изменяющийся языковой мир.-Пермь, 2002.
5. Sevara Mahmudova, & Sarvara Tashaliyeva. (2022). THE INFLUENCE OF MEDIA ON THE FORMATION OF PERSONALITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact Factor: 7.429, 11(01), 94–97.* Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/91>
6. Irisaliyevna T. S. TIL TARIXI–EL TARIXI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 43-47.
7. Toshaliyeva, Sarvara BADIY TARJIMANING BA'ZI MUAMMOLARIGA DOIR // ORIENSS. 2022. № Special Issue 28-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimaning-ba-zi-muammolariga-doir> (дата обращения: 07.10.2023).